



IDEAS OF PATRIOTISM AND LOVE OF FREEDOM IN KARAKALPAK EPICS

Kadirbergenova Gozzal Turimbetovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17222775>

ARTICLE INFO

Received: 13rd September 2025

Accepted: 28th September 2025

Online: 29th September 2025

KEYWORDS

Karakalpak epics, patriotism, love of freedom, oral folk literature, heroism, national identity.

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of the main ideological content of Karakalpak folk epics, particularly the principles of patriotism and love of freedom. The role of epics in shaping the historical destiny, socio-spiritual views, and national consciousness of the Karakalpak people is highlighted. The article also reveals unique manifestations of values such as freedom, courage, and loyalty formed in the people's consciousness through specific examples and character portrayals. During the research process, the educational and spiritual significance of the epics is also extensively discussed.

QORAQALPOQ DOSTONLARIDA VATANPARVARLIK VA ERKSEVARLIK G'OYALARI

Kadirbergenova Gozzal Turimbetovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17222775>

ARTICLE INFO

Received: 13rd September 2025

Accepted: 28th September 2025

Online: 29th September 2025

KEYWORDS

Qoraqalpoq dostonlari, vatanparvarlik, erksevarlik, xalq og'zaki ijodi, qahramonlik, milliy o'zlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Qoraqalpoq xalq dostonlarining asosiy g'oyaviy mazmuni, xususan vatanparvarlik va erksevarlik tamoyillari chuqur tahlil qilinadi. Qoraqalpoq xalqining tarixiy taqdiri, ijtimoiy-ma'naviy qarashlari va milliy ongini shakllantirishda dostonlarning tutgan o'rni alohida yoritiladi. Shuningdek, maqolada aniq misollar va qahramonlarning timsollari orqali xalq ongida shakllangan ozodlik, jasorat, sadoqat kabi qadriyatlarining o'ziga xos ko'rinishlari ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida dostonlarning tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati ham keng muhokama qilinadi.

Kirish. Ma'lumki, xalq dostonlari nafaqat badiiy meros, balki millat ruhiyatining, tarixiy xotirasining, ijtimoiy qarashlarining ham yorqin ifodasidir. Qoraqalpoq xalq dostonlari ham shu ma'noda alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki ular xalqning turmush



tarzini, orzu-intilishlarini, kurashlarini, eng muhimi esa vatanparvarlik va erksevarlik ruhini o'zida mujassam etadi [3, 512-516].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Qoraqalpoq xalqi o'z tarixida ko'plab sinovlarni boshdan kechirgan. Shu sababli, ularning og'zaki ijodi hamisha ozodlikka intilish, yurt sha'nini asrash, dushmanlarga qarshi kurashish kabi g'oyalarni kuylagan. Bunday g'oyalar, o'z navbatida, yosh avlod tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi.

Avvalo, Qoraqalpoq dostonlarida vatanparvarlik tushunchasi juda keng talqin etiladi. Bu tushuncha ota yurtni sevish, uni begona bosqinchilardan himoya qilish, xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish bilan chambarchas bog'liqdir [4, 27-29].

Masalan, "**Qirqqiz**" dostonida qahramon qizlarning yurt sha'ni uchun olib borgan kurashlari tasvirlanadi. Bu dostonning asosiy g'oyasi — xalq erki va mustaqilligi uchun hatto jonini ham ayamalik. Aynan shu jihat qizlarning obrazini xalq nazarida buyuk qahramonlik timsoliga aylantirgan.

*«Zàlmgà bàs iymespen,
Bolgànshà pidà súyegim,
Surtàyshàdày qàlmàqtàn,
Qàytpàs meniñ júregim,
Óytkeni meniñ doslàrim.
Keynimde bir tilegim».*

Bu parcha qizlarning hayotlarini xavf ostiga qo'yib, yurt sha'ni va mustaqilligi uchun kurashganini ko'rsatadi. Shuningdek, ularning jasorati xalqni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Shuni ham unutmash kerakki, erksevarlik Qoraqalpoq dostonlarining asosiy mazmuniy qatlamlaridan biridir. Erksevarlik xalq uchun erkinlik, ozodlik va mustaqillikni anglatadi.

Masalan, "**Sharyar**" dostonida qahramon o'z erkini himoya qilish, xalqining mustaqilligini asrab qolish yo'lida kurashadi. U nafaqat shaxsiy huquqlarini, balki butun xalqning ozodligi uchun ham kurashuvchi sifatida ko'rinadi.

*«Biyik-biyik qirlardan,
Suwlar aqqan jiradan,
Quwatı menen tillanıñ,
Sekirip ótip baradı,
Qarsaq júrmes qalıñnan
Qayırılmay ótip baradı,
Túlki júrmes túneyden,
Túnde ketip baradı».*

Bu satrlarda erkinliksiz xalq bo'lmasligi ta'kidlanadi. Demak, erksevarlik xalqning asosiy qadriyatlaridan biridir.

Bundan tashqari, "**Edige**" dostonida xalqning erkka intilishi, dushman zulmiga qarshi kurashishdagi qat'iyati tasvirlanadi. Bu asarda qahramon Edigening xalq huquqi va mustaqilligi uchun kurashda ko'rsatgan jasorati erksevarlik g'oyasining yorqin namunasi hisoblanadi.

"**Edige**" dostonida ham erksevarlik g'oyasi yorqin ifodalangan:



*«Edil menen Jayiqtan,
Sarimay, Elek biyinan,
Nurani qara quminan,
Toqtamistay patshani,
Paytaq qurgan jeri edi,
Qostar tappay Nogaydan,
Shigip ketti Edige.».*

Bu parcha xalqning ozodlik yo'lida olib borgan kurashlarini, qahramonlarning fidoyiligini aks ettiradi.

Quyidagi jadval orqali ayrim mashhur dostonlarda vatanparvarlik va erksevarlik g'oyalarning qanday ifodalanganini ko'rib chiqish mumkin:

Doston nomi	Asosiy qahramon(lar)	Vatanparvarlik g'oyasi	Erksevarlik g'oyasi
Qirqqiz	Qahramon qizlar	Yurt mustaqilligi uchun jonini tikish	Erkinlikni saqlash, erk uchun kurash
Sharyar	Sharyar	Yurt sha'nini himoya qilish	Mustaqillik va erk uchun kurash
Edige	Edige va xalq	Elning sha'ni, nomusi va ozodligi uchun fidoyilik	Xalq huquqi va mustaqilligini himoya qilish

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha dostonlarda vatanparvarlik va erksevarlik g'oyalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Chunki vatanparvarliksiz erksevarlik, erksevarliksiz esa vatanparvarlik bo'lishi mumkin emas.

Bundan tashqari, Qoraqalpoq dostonlarida vatanparvarlik va erksevarlik g'oyalarning tarbiyaviy ahamiyati juda yuqori. Chunki ular yoshlarni fidoyilik, el-yurtga sadoqat, mustaqillikni asrab-avaylash ruhida tarbiyalaydi.

Masalan, **“Qirqqiz”** dostonini tinglagan yoshlar qizlarning jasorati, elga bo'lgan sadoqati orqali vatan uchun kurashishning naqadar muqaddas ekanligini his etadilar. **“Edige”** dostonidagi kurash esa ularda erksevarlik tuyg'ularini kuchaytiradi. Shunday qilib, bu dostonlar yosh avlod ongida milliy g'urur, iftixor, jasorat va sadoqat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan dalillardan ko'rinadiki, Qoraqalpoq xalq dostonlari xalqning ijtimoiy ongini shakllantirishda, milliy o'zligini anglashida, eng asosiysi esa vatanparvar va erksevar avlodni tarbiyalashda beqiyos manba hisoblanadi. Zero, har bir doston o'z mazmun-mohiyatida xalqning mustaqillikka bo'lgan intilishlarini, ozodlik uchun olib borgan kurashlarini ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpoq dostonlarida vatanparvarlik va erksevarlik g'oyalari chuqur ildiz otgan. Bu g'oyalar orqali xalq o'z tarixiy tajribasini, orzu-intilishlarini, milliy o'zligini kelajak avlodga yetkazgan. Dostonlarda tasvirlangan qahramonlar timsoli yoshlarni fidoyilik, jasorat, erkinlik va el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Shu bois, Qoraqalpoq xalq dostonlarini o'rganish va targ'ib qilish nafaqat adabiyotshunoslik uchun, balki tarbiyaviy jarayon uchun ham muhimdir.



References:

1. K . Mámbetov, G. Jàqsımovà, R . Nietova. Ádebiyàt. Ortà mekteptiń 7-klàss ushın sàbàqlıq. Nókis, «Bilim» 2017. 256 bet.
2. K. Pàlımbetov P. Allàshov . Ádebiyat. 6-klàss ushın (sàbàqlıq-xrestomàtiyà). Nókis, «Bilim», 2017-j. 240 bet.
3. Mahliyo, X. (2025). ISTIQLOL DAVRI DOSTONLARIDA SHAKL VA MAZMUN YANGILANISHI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(5), 512-516.
4. Muhammadovna, O. R. N., & Abdulvohid o'g'li, S. Y. (2025). XALQ OG 'ZAKI IJODI VOSITALARINING YOSHLAR VATANPARVARLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI O 'RNI. New modern researchers: modern proposals and solutions, 2(5), 27-29.
5. To'pchiyev, U. S. (2024). YOSHLAR TARBIYASIDA AJDODLAR MA'NAVIY MEROSINING O 'RNI. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(1), 227-229.